



SIRDARYO VILOYATIDAGI ULKAN O‘ZGARISHLAR “INSON QADRI UCHUN” EZGU TAMOYILIGA UYG‘UN YANGILANISHLAR NATIJASIDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari safarining birinchi manzili Sirdaryo tumanidagi “River Med Pharm” korxonasi bo‘ldi.

Mazkur korxona mamlakatimizda infuzion dori vositalarini ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchilardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan infuzion eritmalarining 20 foizi aynan ushbu korxonaga to‘g‘ri keladi.

Bunday dori vositalari bemor hayoti uchun eng muhim tibbiy mahsulotlardan biri sanaladi. Ularni tayyorlash oddiy tabletkalar ishlab chiqarishdan ancha murakkab. Chunki bu turdagi eritmalar to‘g‘ridan to‘g‘ri qon tomirlariga yuboriladi. Demak, ular mutlaq steril sharoitda, yuqori aniqlik va xalqaro standartlarga to‘liq javob bergan holda ishlab chiqarilishi shart.

Loyihaning umumiy qiymati 30 million dollardan ortiq bo‘lib, hozirgi kunda korxonada 750 nafar odam doimiy ish bilan ta‘minlangan. Korxona yiliga 135 milliard so‘mlik qiymatda 70 turdagi, umumiy hisobda 114 million dona dori vositalarini ishlab chiqarmoqda. Mahsulotlarning 20 foizi eksport qilinayotgani korxonaning xalqaro raqobatbardoshligini ko‘rsatadi.

Novabr oyida loyihaning ikkinchi bosqichi ishga tushirilib, ishlab chiqarish quvvatlari yanada kengaytirildi. Korxona 30 million dona infuzion eritmalar, 70 million donadan ortiq quruq antibiotiklar va qariyb 20 million dona ko‘z-burun tomchilarini ishlab chiqaradi. Davlatimiz rahbariga korxona mahsulotlari va navbatdagi rejalari haqida ma‘lumot berildi.

Kelgusida korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot turlari 200 xilga yetkaziladi. Bu bosqichda shisha va plastik idishlardagi inyeksiya uchun eritmalar, shuningdek, tabletkalar hamda kapsulalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Ish o‘rinlarining soni mingtagacha oshiriladi.

Prezidentimiz shu yerda viloyat faollari va nuroniylar bilan muloqot qildi.

Iqtisodiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, yoshlar tarbiyasi va hududning kelajagiga oid muhim masalalar yuzasidan ochiq suhbat bo‘ldi. Davlatimiz rahbari odamlardagi tashabbuskorlik islohotlar samarasini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta‘kidladi.

Davomi 2-beta

O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning F A R M O N I

E.O. TURDIMOVNI SIRDARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Erkinjon Oqbutayevich Turdimov** Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 4-dekabr

SIRDARYO TARONASI

Sirdaryoda uyg‘onish.
O‘tdi qancha g‘am-tashvish.
O‘tdi rutubatli qish,
Sirdaryoda uyg‘onish.
Qishga inqiroz bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Biz barchamiz — bir daryo,
Elu xalqmiz — bir daryo.
Bizga shu taqdir daryo,
Ona daryo, Sirdaryo,
Xalq senga qiyos bo‘lsin —
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Goh bizdan qochganlaring,
Mung yutib shoshganlaring,
Mo‘l bo‘lib toshganlaring —
Rizq yo‘lin ochganlaring.
To‘lg‘onishing rost bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Bu el — mening elimdir,
U menga muallimdir.
Bukun najot — ilmdir,
Ta‘lim, ta‘lim, ta‘limdir.
Ehtiro, e‘zoz bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Uylar qur, maktablar qur,
Maqtanib, maqtablar qur,
Qalbingga naqsh aylab qur,
Umringni baxsh aylab qur,
Ma‘rifat asos bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Kim bizning ulug‘lardir —
Olam ham ulug‘laydir.
Elni nurga chulq‘aydir,
Qizlaringni ulg‘aytir.
Ulg‘ayishing rost bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

To‘ra Sulaymon bir yon‘,
Jumla g‘azalxon bir yon.
Halima xushxon bir yon,
Maktab — ijodxon bir yon.
Har kitob — ustoz bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Gapim emas yengil gap,
Yo shunchaki ko‘ngil gap,
Har uka, har singilga,
Har dil, har bir ko‘ngilga,
Shundoq iltimos bo‘lsin:
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Qalbm, sen ham qo‘p, qalqin,
Qarzdorisan shu xalqning.
Qarzin bajargil xalqning,
Farzin bajargil Haqning.
Kuy-xonishing rost bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Iftixor

Salkam qirq million ko‘krak
Ichra urar bir yurak.
El-yurt, millat musharak,
Uyg‘oq yuraklar kerak.
Zamon iqtibos bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Sirdaryo, keng jahonsan,
Uyg‘oq kavnu makonsan.
Bugun — buyuk karvonsan,
Zo‘r karvonga Sarbonsan,
Kelajakka ravonsan.
El-yurt sarafroz bo‘lsin,
Uyg‘onishing rost bo‘lsin.

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri



To‘ra Sulaymon satri

Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!



Hakim YO‘LDOSHEV olgan surat.

HAR BIR ISLOHOT XALQ UCHUN, QONUN HAYOT UCHUN

KONSTITUTSIYA — DAVLATNING YURAGI

Inson hamisha yaxshilik, imkoniyat va adolat istaydi. Yangi O‘zbekistonda har bir qonun va o‘zgarishlar aynan shu maqsadda amalga oshirilmoqda — odamlarni farovon etish, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratish va kelajakka ishonchini mustahkamlash. Bugun Konstitutsiyamiz va uning asosida qabul qilinayotgan hayotiy qonunlar amalda ishlatilmoqda. Har bir oila va uning a‘zolari, qolaversa, butun jamiyat uchun beqiyos harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Haqiqatan, bugun fuqarolar o‘z haq-huquqlari, burch va majburiyatlarini chuqur anglab yetmoqda. Bu jarayon davlat va xalq o‘rtasidagi birdamlikni, jamiyatda adolat ustuvorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mana, bu yil Konstitutsiyamizning 33 yillik tarixiy sanasini nishonlamoqdami. Aytish lozimki, o‘tgan davrda Bosh qonunimiz mustaqilligimizning ramzi bo‘libgina qolmay, har bir fuqaro uchun imkoniyat va ishonch manbai sifatida namoyon bo‘ldi. Qonunlar orqali amalga oshirilgan o‘zgarishlar adolat mezonini sifatida aniq natija bermoqda hamda xalq bilan davlat o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlamoqda.

Davomi 3-beta

SIRDARYO VILOYATIDAGI ULKAN O‘ZGARISHLAR “INSON QADRI UCHUN” EZGU TAMOYILIGA UYG‘UN YANGILANISHLAR NATIJASIDIR

Boshlanishi 1-betda

— O‘zgarishlar, avvalo, mahallalarda sezilishi kerak. Sizlar odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘lib, yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishingiz zarur. Hammamiz uyg‘oq va faol bo‘lsak, harakatlarimiz, olib borayotgan islohotlarimiz albatta natija beradi. Sirdaryoga katta rejalar bilan kelganimiz. Sizlarni eshitib, bamaslahat bu rejalarni amalga oshiramiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yuritayotgan “Invest Asia” korxonasida bo‘ldi.

Korxona qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchilardan biri hisoblanadi. Hozirda ichki bozordagi polipropilen qop va yumshoq konteynerlarning 60 foizi, stretch plyonkalarining 40 foizi aynan shu korxona hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Majmua 60 gektar maydonida barpo etilgan bo‘lib, hozirgi paytda 2,5 mingga yaqin ish o‘rni yaratilgan.

Qadoqlash mahsulotlari oziq-ovqatdan tortib, farmatsevtika, sanoat, qurilish va maishiy kimyogacha bo‘lgan ko‘plab sohalar uchun zarur. Ularning sifati mahsulotning xavfsiz saqlanishi, transportirovkasi va bozorga o‘z vaqtida yetkazilishiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ham bunday mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish import xarajalarini kamaytiradi, ichki bozor barqarorligini ta’minlaydi va ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarni sezilarli qisqartiradi.

“Invest Asia” korxonasining yana bir muhim jihati uning mamlakatda bioaksal yo‘naltirilgan polipropilen plyonka ishlab chiqaradigan yagona korxona ekanidir. Bu plyonka turi eng ommabop qadoqlash materiallaridan biri bo‘lib, qattiq va yengilligi bilan ajralib turadi.

Joriy yilning o‘n oyida korxonada 1,9 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlangan, 23 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Avstriya, Germaniya, Italiya, Xitoy va AQSH kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali uskunalardan foydalanilmoqda.

Prezidentimiz korxonada amalga oshirilayotgan texnologik jarayonlarni ko‘zdan kechirdi, ishchilar bilan muloqot qildi. Kelgusi rejalari bilan tanishdi.

Shuningdek, yil yakuniga qadar bu yerda Markaziy Osiyodagi eng yirik spanbon va meltblau — noto‘qima mato ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishi kutilmoqda. Bunday matolar tibbiyot, qurilish, maishiy kimyo va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi.

Barcha loyihalar to‘liq quvvatga chiqqach, ish o‘rinlarining soni 10 mingga yetishi, polimerni qayta ishlash quvvati 280 ming tonnagacha oshishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari shu yerda viloyatda yirik loyihalarni amalga oshirayotgan va yangi tashabbuslar bilan chiqayotgan xorijiy investorlar bilan ham muloqot o‘tkazdi. Hudud iqtisodiyoti, aholi bandligi va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan har

bir loyiha davlat tomonidan, albatta, qo‘llab-quvvatlanishi ta’kidlandi.

Investorlar mamlakatimizdagi tadbirkorlik va investitsiya muhitini yuqori baholab, biznes uchun yaratilgan keng imkoniyatlar hamda amaliy ko‘mak uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdilar.

Davlatimiz rahbari Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida Guliston shahri Bo‘ston mahallasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini borib ko‘rdi.

Bo‘ston mahallasi joriy yil obod mahallaga aylandi. Hududdagi barcha ko‘p qavatli uylar ta’mirlandi, hudud obodonlashtirildi. Mahalla markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Prezident dastlab shu yerda mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot o‘tkazdi. Uchrashuvda mamlakatning barcha hududlarida quyi bo‘g‘indagi muammolarni hal etish, mahallalarni obod qilish va aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samarasi Sirdaryoda ham o‘z aksini topayotgani ta’kidlandi.

— Mahalla — jamiyatning yuzi. Mamlakatdagi barcha o‘zgarishlar, avvalo, shu yerda o‘z ifodasini topadi. Biz shunday tizim yaratdikki, ilgari jiddiy deb hisoblagan ko‘plab masalalarimizga yechimni aynan mahallaning o‘zida topaymiz. Bu institutga e’tiborni yanada kuchaytirishda davom etamiz, — dedi Prezidentimiz.

Hududdagi 48 ta ko‘p qavatli uy joriy ta’mirlandi, tashqi qismi bazalt bilan qoplandi. Issiqlik ta’minotini yaxshilash maqsadida 18 milliard so‘m hisobiga zamonaviy qozonxona va 3,3 kilometr issiqlik tarmoqlari qurildi.

Ko‘p qavatli uylarda 23 ta individual issiqlik punktlari o‘rnatilib, “yopiq” tizim tashkil etildi. Mahalliy budget mablag‘lari hisobidan hududdagi 800 ta xonadonli

20 ta ko‘p qavatli uyning ichki issiqlik tizimlari qayta tiklandi. 1 ta bog‘cha markazlashgan issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta’minlandi.

Yangi qozonxona qurilishi natijasida 144 ming kilovatt-soat elektr va 627 ming kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi.

Prezidentimiz ko‘p qavatli uylarda yashovchi aholi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan bu ishlarni davom ettirish, qozonxonalarni qurish va ulardan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, malakali mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar berdi.

Shu yerning o‘zida “yettilik” vakillari va nuroniylar bilan mahalla hamda viloyat hayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar xususida suhbat bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatida infratuzilmani rivojlantirishga doir qarori asosida hududda 215 ta ko‘p qavatli uyni qamrab olgan maxsus manzilli ro‘yxat shakllantirilgan. Ushbu hujjat doirasida uylarning tom va fasad qismlarini ta’mirlash, issiqlik ta’minotini, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash hamda atrof-muhitni obodonlashtirish ishlari rejalashtirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Sirdaryo viloyat filialiga bordi.

Bu yerda ikki kun oldin Guliston shahridagi umumiy ovqatlanish shoxobchalaridan birida gaz balloni portlashi oqibatida jarohat olganlar davolanmoqda.

Markaz rahbariyati va shifokorlar Prezidentimizga bemorlarning ahvoli va davolash jarayonlarining borishi haqida axborot berdi. Davlatimiz rahbari baxtsiz voqeada turli darajada tan jarohati olgan fuqarolar davolanayotgan palatalarga kirib, ulardan xabar oldi, oila a’zolari bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz mutasaddilarga jabrlanganlarga zarur barcha tibbiy yordam ko‘rsatilishini qat’iy nazoratga olish bo‘yicha topshiriq berdi. Baxtsiz hodisa oqibatida qurbon bo‘lganlarning oila a’zolariga hamdardlik bildirib, ularga moddiy yordam ko‘rsatish zarurligini qayd etdi.

Mas’ullar oldiga sodir bo‘lgan voqeaning sabablarini puxta o‘rganish, qonun ustuvorligini ta’minlash, kelgusida bunday holatlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligi ustidan nazorat ishlarini kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari Guliston shahri jamoat transporti infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida olib kelingan zamonaviy avtobuslar taqdimoti bilan ham tanishdi.

Guliston shahridagi ichki yo‘llar bo‘ylab qatnovlarni amalga oshirish maqsadida 52 ta avtobus olib kelindi. Ular “Yevro-5” standarti talablariga to‘liq javob beradi hamda tabiiy siqilgan gazda harakatlanadi.

Har biri 65 nafar yo‘lovchini qulay sharoitlarda manziligiga yetkazishga mo‘ljallangan ushbu avtobuslar past polli bo‘lib, nogirionligi bo‘lgan shaxslarning harakatlanishi uchun maxsus pandus uskunalar va alohida o‘rindiqalar bilan jihozlangan. Yo‘l haqi to‘lovlarini elektron tarzda ham amalga oshirish uchun “ATTO” tizimi o‘rnatilgan.

Aholining jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyoji hisobga olinib, avtobuslar harakati Guliston shahrining 23 ta mahallasini to‘liq qamrab oluvchi jami 7 ta shahar ichki yo‘nalishida brutto-shartnoma asosida harakatlanadi.

Natijada avtobuslarning harakat intervali avvaligiga nisbatan 2 barobarga qisqarib, kuniga 29 ming nafar aholiga qulay, xavfsiz va arzon transport xizmatlari ko‘rsatilishi ta’minlanadi.

Yana bir jihat: mazkur qatnovlar orqali yiliga 38 milliard so‘mdan ziyod transport xizmatlari ko‘rsatiladi, 120 ta ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga yurtimiz shaharlarining jamoat transporti parklarini shunday zamonaviy avtobuslar bilan to‘ldirish ishlarini izchil davom ettirish, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Shu yerda kelgusida 11 metrl, uzoq masofaga mo‘ljallangan 30 ta avtobusni

olib kelish rejasiga haqida ma’lumot berildi. Ushbu loyiha amalga oshirilsa, qo‘shimcha yana 150 dan ortiq ish o‘rni yaratiladi.

Shundan so‘ng xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Yig‘ilish avvalida davlatimiz rahbari “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi sifatida Sirdaryo viloyatidagi ulkan o‘zgarishlarni alohida ta’kidlandi.

— Ilgari asosan qishloq xo‘jaligiga bog‘lanib qolgan bu zaminda so‘nggi yillarda sanoat, servis, turizm yo‘qdan bor bo‘ldi. Biznes muhiti butunlay o‘zgardi, ilg‘or tadbirkorlar qatlami shakllandi, — dedi davlatimiz rahbari.

Sakkiz yilda Sirdaryo viloyatiga 4 milliard dollar investitsiya kiritildi. Shu davr mobaynida 187 ta yirik quvvat ishga tushirilib, 120 mingga ish o‘rni yaratildi.

50 ga yaqin yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada sanoat hajmi 4 trillion so‘mdan 25 trillion so‘mga yetdi.

Ilgari dotatsiya olgan Guliston, Yangiyer shaharlari, Boyovut, Mirzaobod, Sayxunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlari bugun o‘z xarajatini o‘zi qoplash darajasiga yetgani qayd etildi.

Sirdaryo tumanida kelgusi yili xitoylik sheriklar bilan 122 million dollarlik avtomobilsozlik loyihasi ishga tushiriladi. Yaqinda Qozog‘iston bilan hamkorlikda Sirdaryo tumanida Markaziy Osiyo xalqaro sanoat kooperatsiyasi markaziga start berildi. Ushbu markaz hududida qiymati 300 million dollarlik 14 ta sanoat korxonasi kelasi yilning birinchi choragi yakuniga qadar ish boshlashi, 2026-yilda yana 720 million dollarlik 40 ta yangi loyiha joylashtirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari Sirdaryoda bog‘cha, maktab, shifoxona o‘rinlarini ko‘paytirish, elektr, suv, kanalizatsiya va yo‘llarni yaxshilash borasida ham amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib o‘tdi. Birgina joriy yilning o‘zida aholi turmush sharoitini yaxshilash uchun 100 million dollar resurs yo‘naltirildi. Natijada 47 ta maktab, 45 ta bolalar bog‘chasi, 31 ta tibbiyot muassasasi, 5 ta sport va madaniyat maskani tubdan ta’mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi. Bu ishlar izchil davom ettirilib, kelasi yili yana 100 million dollar ajratilishi e’lon qilindi.

Sessiyada tashkiliy masala ham ko‘rildi. Prezidentimiz hokim vazifasini bajarayotgan Erkin Turdimov nomzodini Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga ilgari surdi.

Viloyat faollarining fikr-muhohazalari tinglanib, nomzod ovoza qo‘yildi. Ovoz berish natijasiga ko‘ra, Erkin Turdimov Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga tasdiqlandi.

Davlatimiz rahbari yangi hokim oldiga Sirdaryoni rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘ydi. Jumladan, kelasi yillar davomida viloyatga jami 3 milliard dollar investitsiya kiritish, eksport hajmini 500

million dollarga yetkazish, 185 ming aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha qat’iy ishlash zarurligi qayd etildi.

Yig‘ilishda viloyatda sanoat, servis, qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda xitoylik investorlar bilan hamkorlikda umumiy qiymati 500 million dollar bo‘lgan 31 ta korxona ishga tushirilib, 5 ming nafar fuqaro yuqori daromadli ish o‘rinlari bilan ta’minlandi. Xitoylik hamkorlar bilan yana 700 million dollarlik 40 ta loyiha bo‘yicha ishlar jadal davom etmoqda.

Yangiyer, Guliston va Shirin shaharlari, Sirdaryo, Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Xovos tumanlari hisobiga “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasi hududi 1080 gektargacha kengaytirildi. Viloyat va tuman hokimlariga sanoat zonasiga qo‘shib berilgan maydonlarda kamida 4 milliard dollarlik loyihalarni boshlash muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Buning uchun loyihalarining samaradorligini puxta hisoblab, investorlarga taqdimot qilish maqsadida Sirdaryo, Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Xovos tumanlari, shuningdek, Yangiyer, Guliston va Shirin shaharlari hokimlaridan iborat delegatsiyani Xitoyga yuborish topshirildi.

Qurilish materiallari bo‘yicha Szyansu, Shandun va Guandun, kimyo sanoati bo‘yicha Tyanszin, elektrotexnika Fuzsyan va Gongkong, yengil sanoatda Shandun va Sinszyan, farmatsevtika sohasida Shanxyan va Szyansi hududlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlik o‘rnatish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, Guliston shahrida kamida 5 ming ish o‘rniga ega “O‘zbekiston — Shanxy hamkorlik tashkiloti” savdo va sanoat zonasi tashkil etilishi belgilandi. Bu yerdagi obyektlar tayyor loyiha sifatida tadbirkorlarga sanoat ipotekasi yoki lizing asosida taklif etiladi.

Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich poytaxtdan tashqariga ko‘chirish jarayonida “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasidagi bo‘yicha yerlar mavjud quvvatlarni joylashtirish uchun katta imkoniyat ekani ta’kidlandi.

Shu bois, poytaxtdan o‘z korxonasini Sirdaryoga ko‘chirish istagida bo‘lgan tadbirkorlarga sanoat zonasidagi yerlar soddalashtirilgan tartibda, chegirma bilan taqdim etiladi, ularga 10 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi, xomashyoni temir yo‘l orqali tashishda arzonlashtirilgan tariflar qo‘llanadi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik va servis infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

2026-yilda viloyat infratuzilmasini yaxshilashga 1,5 trillion so‘m, tadbirkorlik loyihalar uchun 10 trillion so‘m resurs ajratish rejalashtirilgan. Shuning 753 milliard so‘mi ilk bor Sirdaryo viloyati va tuman byudjetlariga mahallalar sharoitini yaxshilash uchun yo‘naltiriladi.

Prezidentimiz aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangicha

yondashuvlar, samarali yechimlarni joriy etish uchun doim izlanish, o‘rganish va tajriba o‘rtirish juda muhimligini ta’kidlandi.

Shu maqsadda 11 ta tuman hokimining birinchi o‘rinbosarini Pekindagi Kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro markazda amaliyot o‘tashini tashkil qilish, sirdaryolik 50 ta yoshni Pekin shahrida avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kurslarda o‘qitish topshirildi.

Shuningdek, Guliston universiteti qoshida Xitoyning “Lu Ban ustaxonasi” dasturi doirasida kasb-hunarga o‘qitish markazini, Sirdaryo tumanidagi tibbiyot texnikumi negizida esa Xitoy bilan hamkorlikda farmatsevtika texnologiyalari yo‘nalishida oliyog‘oh tashkil etish bo‘yicha boshlanadi. Bu orqali Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo va Mirzaobod tumanlaridagi 110 ming gektarda yiliga ikki marta hosil olish imkoniyati yaratiladi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalari ham atroficha ko‘rib chiqildi.

Ekin yerlarida suv ta’minotini yaxshilash maqsadida kelasi yili Boyovut tumanida sig‘imi 100 million kub metr bo‘lgan “Sultonhovuz” suv ombori qurilishi boshlanadi. Bu orqali Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo va Mirzaobod tumanlaridagi 110 ming gektarda yiliga ikki marta hosil olish imkoniyati yaratiladi.

Yig‘ilishda aholi va tadbirkorlarning hayotini yengillashtirishga qaratilgan tashabbuslarga ham alohida to‘xtalib o‘tildi.

A-373 yo‘lining Sayxunobod va Guliston tumanlaridan o‘tuvchi 37 kilometr qismini olitla tasmlai qilib rekonstruksiya qilish ishlarini boshlash topshirildi. Boyovut, Guliston, Xovos, Mirzaobod, Sirdaryo va Sayxunobodning 18 ta mahallasidagi 67 kilometr yo‘lini sement-beton qoplamaga o‘tkazish rejalashtirilgan.

Ikki kun oldin Guliston shahri Taraqqiyot mahallasidagi buyum bozori hududida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalaridan birida gaz balloni portlashi natijasida 29 nafar fuqaro jarohat oldi.

Afsuski, mazkur baxtsiz hodisada qurbonlar ham bor. Prezidentimiz halok bo‘lganlarning oila a’zolariga chuqur hamdardlik bildirdi. Uch kun muddatda qurbonlarning oilasiga 100 million so‘mdan moddiy yordam ajratish topshirildi.

— Bugun sizlar bilan viloyatni yanada rivojlantirish, aholi va tadbirkorlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish bo‘yicha katta-katta reja va maqsadlarni belgilab oldik. Hech shubhasiz, sirdaryoliklarning bunyodkorlik, tashabbuskorlik va fidoyilik fazilatlariga tayyanib, bu marralarga albatta erishamiz, — dedi Prezidentimiz yig‘ilish yakunida.

Sessiya davomida mutasaddilarning hisobotlari, ishtirokchilarning fikr va takliflari tinglandi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Sirdaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdullaziz RUSTAMOV,
G‘ulom PRIMOV,
O‘zA maxsus muxbirlari

Gazetxon mulohazasi

Yoshim 86 ga yaqinlashdi. Tengqurlarim qatorida yangi O‘zbekistonda keksalik gashtini surayotganim uchun Yaratganga hamdu sano, shukronalar aytaman. Albatta, bu yoshga yetgunga qadar turli lavozimlarda ishlaganman, ko‘plab voqealarga guvoh bo‘lganman, turmushning achchiq-chuchugini tatiganman. Boshqacha aytganda, avvalgi va keyingi davrni taqqoslash imkoniga egaman.



Qishloqda tug‘ilib o‘sganim sababli umrimning asosiy qismi qishloq xo‘jaligi yumushlari bilan kechdi. Bolaligim ikkinchi jahon urushi va undan keyingi qiyinchiliklar davriga to‘g‘ri keldi. Boriga shukr qilib yashaganmiz.

Urushdan yarador qaytgan otam bizni chidamga, sabr-qanoatga o‘rgatgan. Ro‘zg‘or uchun tovuq parvarish qildik, keyin echki boqdik, ularni sotib buzoq oldik, buzoq sigir bo‘ldi. Xullas, asta-sekin turmushimiz izga tushdi.

1945-1950-yillarda qishloqlarda hamma

tomorqasiga oq jo‘xori ekip, olingan hosilni un qilib, zog‘ora non yeb hayot kechirdi. Bug‘doy uni 1950-yildan keyin paydo bo‘ldi. Bug‘doy non tansiq yegulik sifatida mehmonlar, betob insonlar uchun tayyorlanar edi. Faqat yakshanba kuni otam bozorga borib, qand-qurs va boshqa yeguliklar olib kelardi. Demochimanki, qishloqda bittagina do‘kon bo‘lib, unda ham oziq-ovqat mahsulotlari juda kamyoq edi.

1991-yilda mustabid tuzum inqirozga yuz tutib, O‘zbekistonimiz mustaqil bo‘ldi. Bu jarayonda Oliy Kengash deputati, xalq vakili sifatida mustaqillik uchun ovoz berganimdan

hamisha faxrlanaman va g‘ururlanaman. Besh yil deputatlik davrimda bosh qonunimiz, bayrog‘imiz, madhiyamiz va yana 200 ta qonun qabul qilinishida ishtirok etdim.

Jonajon Vatanimiz istiqloqla erishganidan so‘ng, ayniqsa, keyingi 8 yilda har tomonlama rivojlandi, obod bo‘ldi. Yurtimiz agrar o‘lkadan sanoati rivojlangan, ilm taraqqiy etgan, sayyohlar oqimi ko‘paygan mamlakatga aylandi. Odamlarning turmush sharoiti sezilarli darajada yaxshilandi, jumladan, qishloqlarda elektr energiyasi, gaz ta’minoti uzluksizligini alohida ta’riflagim keladi.

Keksa avlod vakili sifatida tengdoshlarim — nuroniylar bilan muloqotda bo‘lganimda ular doim Prezidentimizni alqaydi. Hozir yurtimizning qayeriga bormang, ko‘zni quvontiradigan, dilni yayatadigan o‘zgarishlarga guvoh bo‘lasiz. Boshqa viloyatlarni kamstimgan holda, mamlakatimiz yetakchisining Samarqandga mehri o‘zgacha ekanini alohida ta’kidlagim keladi. Shavkat Mirziyoyev Samarqandimizni xayrli, savobli tadbirlar o‘tkaziladigan chin ma’nodagi nurli maskanga aylantirdi. Keyingi yillarda jahonning yarim aholisi istiqomat qilayotgan 14 ta mamlakat rahbari Samarqandga tashrif buyirdi. Shuningdek, bu qadimiy va hamisha navqiron shaharda UNESCOning yubiley konferensiyasi hamda yana ko‘plab yirik tadbirlar tashkil etildi.

Prezidentimiz shijoati, xalqparvarligi, tinchlikevarligi bilan O‘zbekiston xalqini birlashtirdi. Shu bilan birga, uzoq yillar yopilib qolgan chegaralarni ochib, qo‘shni davlatlar xalqlarining ham mehri qozondi. Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari boshini qovushtirdi. AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston



kabi yirik mamlakatlar, Yevropa Ittifoqi bugun biz bilan hisoblashyapti, tengma-teng hamkorlik qilyapti. Bu bizni juda quvontiradi.



KONSTITUTSIYA –
INSON QADRI,
ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI!HAD DID ISLOHOT XALQ UCHUN,
HAD DID QONUN HAYOT UCHUNTanzila NORBOYEVA,
Oliy Majlis Senati Raisi

Boshlanishi 1-betda

Chunki Konstitutsiya — davlatning yuragi. Uning bir maromda, tiniq ishlab turishi mamlakatning bugungi hayoti va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozir dunyoda turli sinovlar, iqtisodiy va siyosiy beqarorliklar kuzatilyotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi, barqarorligi va nufuzini saqlab qolish oson emas. Bunday sharoitda bosh qonunimiz xalqni birlashtirib, davlatimiz suverenitetini mustahkamlashda asosiy poydevor bo’lib xizmat qilmoqda.

XALQ
XOHISH-IRODASINING
IFODASI

Bosh qonun xalqning xohish-irodasi, barcha maqsad va orzu-umidlarini ifoda etadi. Konstitutsiyadagi “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan so’zlar shunchaki shior emas, balki davlat boshqaruvi tizimining asosiy g’oyasidir. Bugun yurtimizdagi barcha ishlohotlar, qabul qilinayotgan qaror va qonunlar aynan shu tamoyilga tayanadi.

Ayniqsa, oxirgi yillarda Konstitutsiya xalqni davlat ishlariга chinakam sherik qildi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Endi odamlar o’z ovozi, fikri va tashabbusi bilan yurt taqdiri, taraqqiyoti yo’lida faol ishtirok etyapti. Bu aholining davlatga ishonchi, davlatning esa xalq oldidagi mas’uliyati sezilarli darajada oshganini anglatadi. Har bir yangi qonun, har bir islohot ortida inson manfaat, farovon hayoti turadi. Shu bois, Konstitutsiya faqat davlat uchun emas, har bir ota-ona, har bir yoshi, fuqaro uchun hayotiy dasturdir. Prezidentimiz ilgari surgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan g’oya bugun konstitutsiyaviy tamoyil sifatida hayotimizning barcha jabhasida o’z ifodasini topmoqda.

Bugun davlat siyosati markazida inson omili turibdi. Xalq vakillik organlari, ijro hokimiyatining eng quyi bo’g’inlarigacha xalqqa xizmat qilish, uning ishonchini oqlashga bel bog’lagan. Konstitutsiya esa mana shu jarayonlarni qonuniy yo’lga qo’yish hamda adolatli amalga oshirilishini ta’minlashda asosiy kafolat vazifasini o’tamoqda.

Uzoq emas, yaqin o’tmishda ham odamlar arzimagan masalalarni hal qilish uchun hujjat yig’ish, ariza topshirish, yordam so’rash uchun idorama-idora sarson bo’lib yurardi. Eshiklar yopiq, so’z eshitilmas, muammo yechimsiz qolardi. Hozir esa vaziyat butunlay boshqacha. Bugun davlat xizmatchisining o’zi odamlarning eshigini taqillatyapti, dardini eshiytyapti, muammosini yechishga ko’maklashyapti.

Bu g’oyaning mohiyati shundaki, davlat — xalq uchun yaratilgan tuzilma, xalq uning xizmatida emas, balki davlat xalqning xizmatida bo’lishi shart. Chunki davlatning kuchi — xalqning birdamligida, ishonchida. Bu yangi O’zbekiston xalqchil siyosatining qat’iy tamoyilidir.

Demak, Konstitutsiyadagi bu g’oya so’zda emas, amalda hayotimizga singib bormoqda. Eng muhimi, buni xalqimiz his qilaypti: kimdir idora eshigidan kirganda hurmat bilan qabul qilinsa, kimningdir muammosi tinglansa, hal etilsa, mana shuning o’zi haqiqiy “xalqqa xizmat” degan so’zning ma’nosidir.

YANGI TAHRIR —
YANGI BOSQICH

Bugun yurtimizda qonunlarni zamon talablariga moslashtirish, idoralarni odamlarga yaqinlashtirish va har bir insonning huquqlarini ta’minlash ustida izchil va qat’iy ishlar bajarilmoqda. Bu jarayon yangi tahrirdagi

Konstitutsiyada o’zining aniq ifodasini topdi. Buni tom ma’noda xalqimizning yakkidligi va hamjihatligi asosida yaratilgan bosh siyosiy-huquqiy hujjat deyish mumkin.

Haqiqatan, 2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimizda o’tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani tarixiy voqea bo’ldi. Unda xalqimizning eng oliy va ezigu maqsadi — yangi O’zbekistonni barpo etish orzu-umidi va intilishlari mujassam, desak to’g’ri bo’ladi.

Avvalo, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi doirasida Konstitutsiyamizning normalari yanada takomillashtirildi. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo’ljallangan

Parlament bu jarayonda eng muhim ko’prik vazifasini bajaradi. U qonun chiqaruvchi organ sifatida xalqning xohish-irodasi, orzu-istaklarini davlat hujjatlarida aks ettiradi va ularning amalda ro’yobga chiqishini nazorat qiladi. Deputatlar, senatorlar xalq bilan uchrashadi, ularning muammolari va ehtiyojlarini tinglaydi. Bu esa parlamentning haqiqiy xalqparvarlik tamoyiliga asoslanganini ko’rsatadi.

Qonunlar va parlament orqali ta’minlanadigan adolat nafaqat huquqni himoya qiladi, balki ishbilarmonlikni qo’llab-quvvatlaydi, mehnat va ijtimoiy sohalarida tenglikni ta’minlaydi. Masalan, har bir xodim o’z mehnati uchun haq olishi, oila ehtiyojini qoplashi, keksa avlod nafaqa pulini o’z vaqtda olishi — ularning barchasini qonun kafolatlaydi.

“

Yangi O’zbekistonda qonun ustuvorligi davlatning asosiy poydevoriga aylandi. Bu — davlat organlari va har bir fuqaro qonun oldida barobar, hech kim o’zini qonundan yuqorida deb hisoblay olmaydi degani. Qonun ustuvorligi adolatni ta’minlash bilan birga xalqimiz hayotida aniq va sezilarli o’zgarishlarni amalga oshirishda muhim asosdir.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida izchil konstitutsiyaviy islohot amalga oshirildi. “O’zbekiston — 2030” strategiyasini hayotga tatbiq etishda yangi tahrirdagi Bosh qonunimizning to’g’ridan to’g’ri ijrosini ta’minlashga qaratilgan ta’sirchan choralar belgilandi.

Yangi tahrirda xalqimizning ko’p asrlik tarixiy tajribasi va boy madaniy

Shu tariqa qonun ustuvorligi va parlamentning faoliyati xalq va davlat o’rtasidagi ishonch ko’prigini mustahkamlaydi. Xalq o’z fikri va ovozi orqali davlat hayotida faol ishtirok etadi, davlat esa xalq manfaatlarini birinchi o’ringa qo’yadi. Bu yangi O’zbekistonda demokratiyaning amaliy namoyoni va xalqparvarlikning eng asosiy mezonidir.



qadriyatlari bilan birga zamonaviy dunyoning konstitutsiyaviy prinsiplariga tayanilgan Konstitutsiyamizning hayotiyligi hamda umrboqiyiligi ta’minladi. Unda asosiy e’tibor inson huquqlari, adolatli sud tizimi, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan bilan alohida ahamiyatga ega.

Eng muhimi, Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida belgilandi. Endi har bir fuqaroning huquqini himoya qilish, sha’ni, qadr-qimmatini asrash davlat siyosatining asosiy yo’nalishiga aylandi, davlat va xalq o’rtasidagi yakkidlik yanada mustahkamlandi.

Muhim jihati, Konstitutsiyaga o’zgartish kiritish jarayonida yurtdoshlarimizning fikri alohida e’tiborga olindi. Bu jarayonda aholi o’zgarishlar kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchi sifatida o’zini namoyon etdi. Aslini olganda, bosh qonunimizning haqiqiy kuchi hamda taraqqiyparvarligi xalqimizning teran tafakkuri, yuksak ongining mahsulidir.

PARLAMENT —
XALQ VA DAVLAT
O’RTASIDAGI KO’PRIK

Yangi O’zbekistonda qonun ustuvorligi davlatning asosiy poydevoriga aylandi. Bu — davlat organlari va har bir fuqaro qonun oldida barobar, hech kim o’zini qonundan yuqorida deb hisoblay olmaydi degani. Qonun ustuvorligi adolatni ta’minlash bilan birga xalqimiz hayotida aniq va sezilarli o’zgarishlarni amalga oshirishda muhim asosdir.

Konstitutsiyamiz asosida shakllangan Oliy Majlis, ya’ni parlament davlat boshqaruvining eng muhim siyosiy institutidir. U orqali xalqning irodasi davlat siyosatining asosiy yo’nalishiga aylanadi. Qonunlar esa faqat nazariy hujjatlar emas, balki fuqarolar hayotida amalga oshishi lozim amaliy qoidalar bo’ladi.

So’nggi yillarda deputatlar, senatorlar faqat qonun chiqarish bilan cheklanmay, xalq bilan uchrashib, odamlarning muammolarini tinglayapti. Bu parlamentning haqiqiy xalqparvarlik tizimining asosida ishlayotganini ko’rsatadi. Deputatlarining xalq vakillari deb atalmish yuksak rubtadagi asosiy vazifalari elektoratining manfaatlarini himoya qilishda ham yaqqol ko’rinmoqda.

Qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonidagi har bir bosqichda buni kuzatish mumkin. Ba’zan ayrim qonunlar muhokamasida bahsli vaziyatlar, tortishuvlar yuzaga keladi. Bularning barchasi, birinchi galda, mana shu qonundan foydalanuvchi odamlar, qolaversa, hududlar manfaatlarini to’laonli aks ettirish bilan bog’liq. Xalq vakillari — senatorlar, deputatlar qat’iy turib ularni himoya qiladi.

Davlatimiz rahbari o’tgan yili Oliy Majlis Senatining birinchi yalpi majlisida qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo’yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo’lga qo’yish muhimligiga bejiz e’tiborimizni qaratmadi. Zero, hududlarning o’ziga xos xususiyati va imkoniyatlari hisobga olinmagan qonunlar quyi bo’g’inda samarali ishlamaydi.

So’nggi yillarda mahalliy kengashlar hududlar hayotining barcha jabhasida

sezilarli darajada faollashdi. Jumladan, qonun ijodkorligida ham ularning ishtiroki kengaydi. Hozir Senat qo’mitalarining muhokamalar jarayonida mahalliy kengash deputatlari bilan ko’proq ishlamoqda, ularning taklif va mulohazalari qonunlarni yanada takomillashtirish, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ularda hududiy va umumdavlat manfaatlari uyg’un bo’lishiga erishishda muhim o’rin tutmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Senatga qonunchilikka oid takliflarni qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish huquqi berilgani hududlardagi muammolarni bartaraf etish, aholini qiyinab kelayotgan masalalarga qonuniy yechim topish borasidagi faoliyatimiz samaradorligini oshirdi.

Haqiqatan, jamiyat, davlat rivojlangani sari qonunlari ham takomillasib boraveradi. Taraqqiyot hayotimizga yangidan-yangi tushunchalar, ijtimoiy munosabatlarni olib kiradi. Ularni muntazam tartibga solish va moslashtirib borish jamiyatni ortiqcha muammolardan xalos qiladi. Parlamentda qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlar xalqning hayotiga bevosita ta’sir etadi. Masalan, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot va ishbilarmonlik sohasidagi qonunlar aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan. Shu orqali parlament nafaqat qonunlar qabul qiladi, balki har bir oila, har bir inson uchun haqiqiy himoyachiga aylanadi.

ADOLAT VA INSON
HUQUQLARI —
KONSTITUTSIYAMIZNING
MARKAZIY G’OYASI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi normalar adliya, sud va ichki ishlar tizimlarida adolat va ochiqlikni ta’minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va huquqlarini ta’minlash borasidagi ishlarni tubdan yangi bosqichga olib chiqishda juda muhim. Odamlar haq-huquqlarini oson himoya qilmoqda, davlat xalq ehtiyojini ta’minlash va aholiga zarur yordam ko’rsatish borasidagi majburiyatlarini bajarishga mas’uliyat bilan yondashmoqda.

Xususan, ayollar va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi — ular bilim olish, karyera qilish, oila qurish, qobiliyat va iste’dodini erkin ro’yobga chiqarishda to’liq qo’llab-quvvatlanmoqda. Yurtdoshlarimiz mamlakat rivojiga shaxsiy hissa qo’shishni burch sifatida anglamoqda va shu yo’lda o’zini safarbar etmoqda. Konstitutsiya chin ma’noda har bir fuqaroda “Men jamiyat hayotida o’z o’lim bilan muhimman. Mening har bir ezigu fikrim, orzu-umidlarim hamda barcha sa’y-harakatlarim jamiyat uchun qadrlidir” degan ishonchni mustahkamlamoqda.

Ha, har bir inson yaxshi yashash, mehnati uchun munosib maosh olish, huquq va erkinliklari himoya qilinishi va keksayganda nafaqa bilan ta’minlanishni istaydi. Bu insonning asosiy haq-huquqlaridan biri bo’lib, kelajakka ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada adolat jamiyat va davlat munosabatlarining asosiy

g’oyasi sifatida belgilandi, “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasi “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o’zgartirildi. Bu inson manfaatini davlat uchun ustuvor yo’nalish ekanini anglatadi. Shu orqali davlat va jamiyat hamkorligida har bir fuqaro uchun adolatli, erkin va farovon muhit barpo etildi.

Masalan, sud tizimida adolat va ochiqlikni ta’minlash, ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish, mehnat va ta’lim sohasida huquqlarni himoya qilish borasidagi yangilanishlar xalqimiz hayotidagi ko’plab ijobiy o’zgarishlarga sabab bo’lmoqda. Shu tariqa yangi tahrirdagi Konstitutsiya nafaqat qonunlar asosi, balki har bir insonning hayotida adolat, ishonch va huquqning kafolatiga aylandi.

Chindan ham ayni kunlarda Konstitutsiya va qonunlar orqali ta’lim, sog’liqni saqlash, iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, huquq va qonuniylk kabi barcha sohalar rivojlanib,

texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot odamlarga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu har bir oila va shaxs farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi, albatta.

So’nggi yillarda tibbiy xizmatlar aholi uchun qulay, sifatli hamda ommaviy tarzda tashkil qilinmoqda. Kam ta’minlangan oilalarga yordam berish imkoniyati kengaytirildi va keksalarning salomatligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Huquq va qonuniylk sohasidagi o’zgarish va yangiliklar ham e’tiborga loyiq. Bugun sud va huquq-tartibot tizimlari yanada shaffof, adolatli ishlamoqda. Har bir fuqaro o’z huquq va erkinliklarini oson himoya qilishi mumkin.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Biz inson qadr-qimmatini va manfaatlarini ta’minlash bo’yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat’iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan Asosiy qonunimizda o’z



“

Xalqimiz farovonligi va Vatanimiz ravnaqining huquqiy asosini tashkil etuvchi bosh qonunimiz yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro, oila taqdirida, ularning bugungi hayoti, ertangi kelajagida muhim omil bo’lib xizmat qilmoq’i uchun biz — senatorlar zimmamizdagi mas’uliyatni chuqur his qilishimiz, tom ma’noda xalqchil Senat sifatida mana shu jarayonlarda yanada faol bo’lishimiz, davlatimiz rahbari aytganidek, kuchli iroda, birlik va hamjihatlik bilan qattiq mehnat qilishimiz talab etiladi.

xalq hayoti farovonlashib bormoqda. Xususan, oxirgi yillarda maktabgacha, maktab va oliy ta’lim muassasalari zamonaviy talablariga moslashtirildi. Yoshlar bilim olish, kasbiy imkoniyatini kengaytirish, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar orqali davlat hamda jamiyat rivojiga munosib hissa qo’shmoqda. Bu yo’nalishda mahalliy va xalqaro tajribalardan samarali foydalanilmoqda, ustozlar va olimlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi.

Iqtisodiyot va ishbilarmonlik doirasida ham izchil islohotlar o’tkazildi. Kichik va o’rta biznes qo’llab-quvvatlanmoqda, investitsiyalar jalb qilinmoqda va yangi ish o’rinlari ochilmoqda. Zamonaviy

akslari topgan tamoyillarni to’liq ro’yobga chiqarishimiz va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim”.

Darhaqiqat, xalqimiz farovonligi va Vatanimiz ravnaqining huquqiy asosini tashkil etuvchi bosh qonunimiz yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro, oila taqdirida, ularning bugungi hayoti, ertangi kelajagida muhim omil bo’lib xizmat qilmoq’i uchun biz — senatorlar zimmamizdagi mas’uliyatni chuqur his qilishimiz, tom ma’noda xalqchil Senat sifatida mana shu jarayonlarda yanada faol bo’lishimiz, davlatimiz rahbari aytganidek, kuchli iroda, birlik va hamjihatlik bilan qattiq mehnat qilishimiz talab etiladi.



Bugun dunyoda ichimlik suv muammosi dolzarb masalaga aylangan. Suv zaxiralari tobora kamayib borayotgani yetmagandek, ekologik vaziyat ham yomonlashib, tabiiy manbalar ifloslanishi ortmoqda. Ayniqsa, hali nomini unutishga ulgurmaganimiz kovid pandemiyasi va boshqa turli infeksiyali kasalliklar sabab ichimlik suv sifati va tozaligi borasidagi xavotirimiz oshgan. Keyingi yillarda bunga odamlarning suv va kanalizatsiya tarmoqlarini yirik chiqindilar bilan to‘ldirishga odatlanib qolgani ham qo‘shilyapti. Ya‘ni ichimlik suv sifati borasidagi shubhalarimizga xatt-harakatlarimiz ham asos bo‘lmoqda.

Shu bois, bugun yana ushbu dolzarb masalaga qaytib, poytaxtimizda ichimlik suv ta‘minoti ko‘rsatkichi, iste‘molga yaroqlilik va tozalik darajasi, ko‘pchilikni qiynaydigan oqova muammolari hamda yangi qabul qilingan Suv kodeksi borasidagi savollarga oydinlik kiritishni maqsad qildik. **Suhbatdoshimiz — “Toshkent shahar suv ta‘minoti” aksiyadorlik jamiyati direktori o‘rinbosari, bosh muhandis Umid MELIKOV.**

— Oxirgi yillarda poytaxt aholisi orasida do‘konlarda sotiladigan ichimlik suvdan nafaqat chanoq qondirish, balki kundalik iste‘mol vositasi sifatida foydalanadiganlar soni ortgan. So‘rasangiz, jo‘mrakdan oqayotgan suv sifati talabga javob bermasligi, shu bois, kundalik ehtiyojlarda ham sotuvdagi tozalangan suvdan foydalanayotganini aytadi. Xo‘sh, chindan ham shahar aholisiga yetkazib berilayotgan ichimlik suv iste‘mol talablariga javob bermaydimi?

— Haqiqatan, odamlardan suv masala bilan bog‘liq ko‘plab savollar keladi. Buni to‘g‘ri tushunish kerak. Boisi, tobora keskinlashib borayotgan ekologik muammolar, qolaversa, odamlarning tabiatga bevosita zararli xatti-harakati, istaymizmi-yo‘qmi, suvga ham ta‘sirini ko‘rsatyapti. Bolaligimizda ariqlarda oqayotgan suvga bemalol non botirib yerdik. Hozir esa ariqlarga qarasangiz, hatto qo‘l yuvishga botina olmaysiz. Unda oqib kelayotgan chiqindilar ekologik madaniyatimiz qay darajada ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Bunday vaziyatda ichimlik suv masalasida ham xavotirlar bo‘lishi tabiiy. Ammo bir narsani ishonch bilan aytga olamizki, bugun Toshkent shahri aholisiga yetkazib berilayotgan ichimlik suv har tomonlama toza va shaffof bo‘lib, ichishga to‘la yaroqli. Boisi, soha oldida turgan asosiy vazifa aholini musaffo, takror aytaman, toza ichimlik suv bilan ta‘minlashdan iborat. Bu doimiy nazoratga olingan. Xususan, Toshkent shahri aholisiga yetkazib berilayotgan suvning sifati hamisha kuzatib boriladi. Suv inshootlaridagi maxsus laboratoriyalarda 28 dan ortiq ko‘rsatkich bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkazilib, me‘yorga keltirilgandan keyingina iste‘molchilarga uzatiladi. Suvni tozalash bir necha bosqichda amalga oshirilib, buning uchun juda katta mehnat, kimyoviy vositalar sarflanadi. Jarayonda 4500 dan ortiq odam mehnat qiladi. Qolaversa, shahar tarmoqlariga yetkazilgan toza ichimlik suv kun davomida ham bir necha marotaba tekshirilib, namunalar laboratoriya sharoitida tahlil qilinadi. Laboratoriyalarga eng zamonaviy rumumdagi xorijiy texnologiyalar olib kelingan. Bu ham tahlil ishlarini yanada aniq, tezkor amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ba‘zida yurtdoshlarimiz jo‘mrakka filtr o‘rnatish borasida ham savollar beradi. Ushbu qurilma umumiy tarmoqdan kelayotgan ichimlik suvni tozalab berishiga ishonishadi. Lekin poytaxtda aholiga yetkazib berilayotgan suvga filtr o‘rnatish shart emas. To‘g‘ri, filtr o‘rnatilganda suv tozadek, yumshoqdek tuyuladi, ammo qurilma ishlashi davomida suv ichidagi mineral elementlarni so‘rib oladi. Bunday suv iste‘mol qilinganda organizmdagi mineral moddalarni yuvib chiqib ketadi. Ya‘ni jo‘mrakdan oqayotgan suvning o‘zi 20 dan ortiq mineral moddaga to‘yingan bo‘lib, har tomonlama iste‘molga yaroqlidir. Bir qarashda xiraroq ko‘rinishi esa tarkibidagi mineral tuzlar bilan bog‘liq. Aslida, suv aholiga to‘liq tozalangan, zararsiz holda yetkaziladi va uni bemalol iste‘mol qilsa bo‘ladi.

— Mamlakatimiz aholisi 38 million kishidan oshdi. Bu har bir hudud, xususan, Toshkent shahrida odamlar soni o‘shib borayotganidan dalolat. Xo‘sh, ichimlik suv ta‘minoti-chi, bu boradagi ko‘rsatkich qanday? Oshirilgan to‘lov narxiga yarascha xizmat ko‘rsatilyaptimi?

— Toshkent shahrida aholiga ichimlik suv berish 1931-yildan boshlangan. O‘shanda birinchi bo‘lib “Bo‘zsuv” suv inshooti ochilgan. Dastlabki vaqtlarda aholiga bir sutkada 3000 kub metr suv berilgan. Hozir inshootda 230 ming kub metr atrofida suv tozalanib, aholiga uzatiladi. Poytaxt ahliga har sutkada beriladigan suv hajmi esa 2 million kub metr atrofida. Hozir Toshkent shahriga asosiy suv hajmini yetkazib beruvchi “Qodiriya” suv inshooti bo‘lib, sutkasiga 1,5 million kub metr atrofida suv bilan ta‘minlaydi. Bundan tashqari, yana 6 ta inshoot poytaxtga suv yetkazib beradi. Ayni paytda shahar aholisining ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 98

foiz. Sababi keyingi yillarda yangi qo‘shilgan mahallalar hisobiga bu ko‘rsatkich 100 foizga yetgan emas. Ammo yangi manzillarga ham muntazam ichimlik suv tarmoqlari tortilmoqda. Odatda suvni yaroqli holga keltirish uchun sezilarli mablag‘ sarflanadi. Bu nafaqat tozalovchi kimyoviy vositalar, balki zamonaviy texnikalar, ularning ishlashi uchun zarur elektr energiyasi sarf-xarajati bilan bog‘liq. Mamlakatimizda yillar davomida suv narxi qariyb tekin bo‘lgani, ishlab chiqarish xarajatini qoplamagani, sohaga yetarlicha e‘tibor qaratilmagani bois, ichimlik suv yetkazib berishda ko‘p muammolar kuzatilgan. Yaqin yillargacha sohadagi moliyaviy qiyinchilik



oyog‘imizni bog‘lab kelgan. Suvni qayta ishlash bilan sotish narxi nomutanosibligi aksariyat loyihalarimiz kechikishiga sabab bo‘lardi. Bitta misol: bundan 3 yil oldin bir kub metr suvni qayta ishlash narxi 620, sotish bahosi 400 so‘m edi. O‘rtadagi tafovut ko‘p muammolarni keltirib chiqarganini soha vakillari yaxshi biladi.

Ana shu holatlar tahlil qilinib, qolaversa, suv narxi nihoyatda arzonligi aholi tomonidan sezilarli darajada isrof qilinishiga olib kelayotgani yaqqol ko‘ringacha, ichimlik suv narxi oshirildi. Bu aholi uchun jazo yoki tartibga chaqirish vositasi emas, dunyoda qiymati tobora oshib borayotgan ne‘matni qadrlashimiz zaruratga aylanganini bilan ham bog‘liq. Afsuski, bizda ekologik madaniyat hamyon bilan bog‘liq bo‘lganda yaxshiroq shakllanadi. Qancha gapirmaylik, narx-navo ko‘tarilgach, istalgancha isrof qilyotgan odamlar suvdan o‘ylab foydalanadigan, keraksiz vaqtida jo‘mrakni o‘chirib qo‘yadigan bo‘ldi. Suvdan istalgancha foydalanishga ham cheklovlar yo‘q. Faqat shunga yarascha to‘lov qilinishi kerak. Umuman, jahon amaliyotida ham, bozor iqtisodiyotida ham shunday.

Hozir ichimlik suv narxi eng arzon hududlardan biri — Toshkent shahri. Shaharga suv o‘z oqimi bilan kirib kelgani, elektr energiyasi kam sarflangani bois, boshqa hududlarga nisbatan narx pastroq. Suv yetkazib berish

suv tizimini transformatsiya qilish” loyihasi bir qancha yo‘nalishlarni qamrab olgan. Loyiha doirasida ko‘plab texnik-texnologik yangiliklar amaliyotga joriy etilyapti. Kompaniya tomonidan olib kelingan zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida yo‘llarning tashqi qismiga zarar yetkazmagan holda suv quvuri tekshirilib, nosozliklar aniqlanmoqda. Bunda xo‘l yuzasiga zarar yetmasligi sabab ortiqcha xarajat bo‘lmaydi. Ammo hamma quvurni ham ta‘mirlab bo‘lmaydi, eskilarini imkon qadar yangilashga harakat qilyapmiz.

Bundan tashqari, suv tarmoqlarida yuzaga keladigan avariya holatlarini bartaraf etish bo‘yicha ham yangicha texnologiya qo‘llanyapti. Suv quvurlariga zamonaviy vantuz uskunasi o‘rnatilmoqda. Gap shundaki, odatda avariya holati quvurlarda havo turib qolishi tufayli yuzaga keladi. Vantuz qurilmasi esa me‘yoriyan ortiq to‘plangan ana shu havo bosimini avtomatik chiqarib yuboradi. Shuning hisobiga bugun avariyaalarning qariyb 50 foizga qisqarishiga erishdik.

Bundan tashqari, sohada energiya tejamar texnologiyalar, xususan, nasoslardan keng foydalanilaymiz. Eski nasoslarni bosqichma-bosqich yangi, energiya tejovchi “Grunfos” nasoslariga almashitiraypmiz. Inshootimizga quvosh panellari o‘rnatildi. Barcha sa‘y-harakatimiz suv isrof bo‘lishining oldini olishga qaratilgan.

— Toshkentda oqova suv tarmog‘i muammosi eng dolzarb masalalardan. Shahar aholisi shu sabab yuzaga keladigan noqulayliklar, yoqimsiz hid, ayniqsa, yomg‘ir mavsumida ko‘chalarga suv toshishi borasida tez-tez e‘tiroz bildirib turadi. Vaholanki, bu ekologik xavfsizlik jihatidan ham jiddiy masala. Xo‘sh, poytaxtda kanalizatsiya tizimidagi ishlar qanchalik talabga javob beradi?

— Haqiqatan, bu Toshkent shahridagi eng og‘riqli masalalardan biri. Nima uchun? Chunki odamlar kanalizatsiya tarmog‘ini “chiqindi qutisi”ga aylantirib olgan. Aslida, u oqova suvni tozalashga mo‘ljallangan. Ammo oxirgi yillarda unga sanoat chiqindilari, yirik hajmdagi chiqindilar muttasil tashlanishi oqibatida bu

Afsuski, ko‘pchilik duch kelgan narsani kanalizatsiya tarmog‘iga tashlashga odatlanib qolgan. Ayniqsa, ko‘p qavatli uylarda sanitariya-gigiyena vositalari, bolalar tagliklarini oqova suvga oqizib yuborish holatlari nihoyatda ko‘p. Eng yomoni, bunday vositalar yo‘q bo‘lib ketmaydi, aksincha, suvda shishib, kanalizatsiya tarmog‘ida tiqin hosil qiladi. Natijada xonadonning o‘zida yoki ko‘chada suv toshqini yuzaga keladi. Hatto oziq-ovqat mahsulotlarini kanalizatsiyaga tashlaydiganlar borligini ko‘rib, yoqa ushlaysiz. Bu to‘qlikka sho‘xlik, qo‘polroq qilib aytganda, ekologik madaniyat yo‘qligidan dalolat.

Sanoat chiqindilari ham xuddi shunday. Masalan, ishlab chiqarish korxonalaridan chiqadigan rang, kimyoviy vositalar

“ Suv tejamlorligida aqlli qurilmaning ahamiyati katta. Masalan, xonadondagi quvurlar nosozligi sabab doimiy oqayotgan suv haqida uy egasiga xabar yuborilib, ogohlantiriladi. Tizim tashkilotlarining ham elektron tizim orqali xabardorligi o‘z vaqtida chora ko‘rishga sabab bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish sifati oshadi.

tarmog‘ “maxsustrans” vazifasini bajaryapti. Toshkent shahrida birinchi kanalizatsiya tarmoqlari 1938-yilda tortilgan. O‘sha tarmoqlar yaqingacha bor edi. Lekin keyingi yillarda tizimni yangilash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha ishlar jadal bajarilyapti. Ayni paytda shaharning kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlanganlik darajasi 94 foiz bo‘lib, hududlar bo‘yicha bu eng yuqori ko‘rsatkich.



Yaqin yillarda uni 95-96 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, Toshkent shahriga qo‘shilgan hududlarni ham oqova suv tarmoqlari bilan ta‘minlash ishlari faol davom ettirilyapti.

Umuman, oqova suv xizmatlari ko‘rsatishining texnik va texnologik sifatiini yaxshilash bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilyapti. Ammo bizni eng ko‘p qiynayotgan masalalardan biri — chiqindi muammosi. Birgina misol: Toshkent shahridan inshootlarimizga bir sutkada 1,5 million kubdan ortiqroq kanalizatsiya suvi chiqariladi. Shu bilan birga, kanalizatsiya inshootlarining har biridan 2 tonnagacha yirik chiqindi olib chiqib ketiladi. Oqova suvni tozalash inshootlarining uchirilishi ham bir xil muammo bor — maishiy va sanoat chiqindilarini tozalash.

umuman, ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hozircha oqova suvni zamonaviy usulda tozalash texnologiyasi qo‘llanmasligi bois, suv faqat qishloq xo‘jaligida ishlatishga yaroqli holga keltirib beriladi. Aksariyat davlatlarda shu amaliyot qo‘llanadi.

— Aholi orasida oqova suv tozalanib, odamlarga ichimlik suv sifatida qayta beriladi degan gaplar ham yuradi. Bu qanchalik o‘rinli?

— Dunyoda ichimlik suv muammosi dolzarb bo‘lib borayotgan sharoitda bu savol odamlarni ko‘proq qiziqitirishi tabiiy. Ammo bunday emas. Yurtimizda oqova suv ichimlik suv sifatida qayta berilmaydi. Toshkent shahrida aholiga bir sutkada 2 million kub metr atrofida suv berilsa, shundan qariyb 80 foizi kanalizatsiya suvi orqali qayta olib chiqib ketiladi. So‘ng kanalizatsiya

inshootlarida biologik usulda qayta ishlanib, tabiatga yo‘natiriladi va asosan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi.

Siz aytgan holat bir nechta davlat tajribasida borligi rost. Ya‘ni ba‘zi mamlakatlarda oqova suv qayta ishlanib, aholiga beriladi. Ammo u ham texnik suv bo‘lib, iste‘mol emas, balki hojatxona va boshqa ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Bizda esa, birinchidan, kanalizatsiya suvini qayta ishlab, iste‘molga berish uchun zarurat yo‘q. Ikkinchidan, kanalizatsiya suvi qayta ishlanib, ichimlik suv sifatida berilsa, narxi ramziy ma‘noda tilloga teng bo‘ladi. Chunki yaqinda Germaniyada bir tadqiqotda kanalizatsiya suvini ichimlik suv darajasigacha olib chiqish uchun 12 ta tozalash bosqichi o‘tkazildi. Bunda suvning tannarxi juda oshib ketadi.

— Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yil o‘rtalaridan boshlab yurtimizda suv hisobini yuritish bo‘yicha xonadonlarga aqlli hisoblagichlar o‘rnatilishi kerak edi. Ammo ishlar deyarli bir yilga kechikdi. Hozir jarayon qaysi bosqichda?

— Tashkiliy masalalar tufayli ishlar bir yilga cho‘zildi. Nihoyat shu yil avgustidan aqlli hisoblagichlarni o‘rnatish jarayoni boshlandi. Yil oxirigacha 50 mingta aqlli hisoblagich o‘rnatilishi nazarda tutilgan. Yaqin besh yilda mamlakatimiz aholisi to‘liq ushbu qurilma bilan ta‘minlanadi.

Aqlli hisoblagich qurilmasi ham, o‘rnatib berish ham mutlaqo bepul. Undan foydalanish esa aholi va ta‘minotchi korxona uchun qator afzalliklar beradi. Yangi hisoblagich o‘rnatilsa, iste‘molchilarning har oyda billing tizimiga hisoblagich ko‘rsatkichini berishi talab etilmaydi. Bu ma‘lumotlar avtomatik tarzda uzatiladi. Bundan tashqari, xonadonda sarflanayotgan suv hajmi bilan bog‘liq nosozliklar bo‘lsa ham billing tizimiga darhol xabar beriladi.

Aqlli qurilma suv sarfi bilan bog‘liq barcha jarayonni nazorat qiladi. Inson omilisiz ishlashi shaffoflikni ta‘minlab, turli noqonuniy harakatlar, katta qarzdorliklar yuzaga kelishining oldini oladi. To‘lovlar borasidagi tushumovchiliklar, noroziliklar bartaraf etiladi. Qolaversa, elektron tizim orqali ma‘lumotlar bazasi shakllantirilib, suv iste‘moli bilan bog‘liq jarayon tahlil qilib boriladi.

Suv tejamlorligida aqlli qurilmaning ahamiyati katta. Masalan, xonadondagi quvurlar nosozligi sabab doimiy oqayotgan suv haqida uy egasiga xabar yuborilib, ogohlantiriladi. Tizim tashkilotlarining ham elektron tizim orqali xabardorligi o‘z vaqtida chora ko‘rishga sabab bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish sifati oshadi.

Bugun poytaxtdan tashqari shaharga yondosh Toshkent viloyati hududiga bizning tarmoqlardan tortilgan suv quvurlariga ham aqlli hisoblagichlar o‘rnatilyapti. Ular suv muvozanatini to‘g‘ri shakllantirish, yo‘qotishlarining oldini olishga xizmat qiladi. Jarayondagi ishlar, barcha hisob-kitoblarni esa suv ta‘minoti korxonasi ham, aholi ham maxsus platformalar orqali bevosita kuzatib borishi mumkin.

— Joriy yil iyulda O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi qabul qilindi. Bu ham aholining iste‘moldagi javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chorami? Unga binoan nimalar o‘zgarayapti?

— Shubhasiz, Suv kodeksi qabul qilingani ichimlik suv bilan bog‘liq vaziyat jiddiylashmoqda deganidir. Ya‘ni biz xo‘jasizlarcha foydalanib kelayotgan bu ne‘mat zaxirasi tugab borayotganiga endi yuzaki qaray olmasligimizni anglatadi. Vaziyat shu darajaga yetib keldi: sohani isloh qilmasak, qat‘iy choralar ko‘rmasak yoki me‘yorni yanada mustahkamlamasak, bundanda vahimali muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Suv kodeksi qabul qilinishi mana shu masalalarni yechishga qaratilgan. Unda ko‘plab me‘yorlar belgilangan bo‘lib, suvni isrof qilmaslik va bu borada choralar ko‘rish ko‘zda tutilgan.

Shu kungacha ham suvni asrab-avaylash bo‘yicha qator me‘yorlar bor edi. Ammo ularning ko‘pi bugungi talablariga to‘g‘ri kelmaydi. Qolaversa, suv to‘lib-toshib turgan vaqtlarda bu me‘yorlarga hech kim amal qilmagan. Hozir esa har tomchi suvni qadrlashimiz kerak. Bu oldimizga normalarni o‘zgartirish, yanada qat‘iylashtirish vazifasini qo‘yadi.

Birgina Toshkent shahrining o‘zida yer osti suvi qariyb 20 metrdan 30 metrgacha tushib ketgani muammoning qanchalik chuqur ildiz otayotganidan darak. Sohaga zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilayotgani boisi shunda. Qolaversa, har birimiz kundalik suv sarfini minimal darajaga tushirishimiz zarur. Bu ehtiyojni qondirmaslik kerak degani emas. Shunchaki ehtiyojimizdan ortig‘ini isrof qilmasligimiz lozim. Masalan, 1 kub metr suv bilan sug‘oriladigan yerga tonnalab suv sarflamaslik oddiy qoidaga aylanishi darkor. Suv kodeksi ayni shu masala — suvning har tomchisini asrab-avaylashni nazarda tutadi.

Ko‘pchilik tejamlorlikka befarq qaraydi, oddiy gapdek qabul qiladi. Vaholanki, zamonaviy texnologiyalar hisobiga tejamlorlikni bir necha barobar oshirish mumkinligi amaliyotda o‘z isbotini topyapti. Masalan, bundan 4-5 yil oldin Toshkent shahri aholisiga sutkasiga 2 million 400 kub metr atrofida suv berilgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 300 ming kubgacha kamaygan. Aholi soni esa ortyapti, sanoat korxonalari va jittimoij soha obyektlari ko‘payyapti, lekin suv berilishi kamayib boryapti. Bu tejamlor texnologiyalarni qo‘llash natijasi.

Bugun suv muammolari borligi aniq ekan, obihayotga munosabatimizni ham o‘zgartirishimiz, ekologik madaniyatni oshirishimiz kerak. Kodeks qabul qilindi, lekin unga amal qilish — asosiy masala. Bu borada har bir yurtdoshimiz daxldorlikni his qilishi lozim.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

KO'NGILLILIK HARAKATI

bizga begona emas



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqimizda ko‘ngillilik (volontyorlik) madaniyati azal-azaldan rivojlangan. Uy qurish, ariq qazish, yo‘l yoki bog‘-rog‘larni tozalash, daraxt ekishda bir tanu bir jon bo‘lib xizmat qilish, hasharda yelka tutib mahalladoshlariga ko‘mak berish go‘zal qadriyatlardan sanaladi. Bu ezgu amal yangicha shakl va mazmun kasb etib, bugungi kunda volontyorlar harakati bilan uyg‘un bo‘lib bormoqda.

Tashabbuskor xalq vakillari

“Volontyor” fransuzcha “volontaire” so‘zidan olingan bo‘lib, “ixtiyoriy”, “o‘z xohishiga ko‘ra ish qiluvchi” ma‘nolarini anglatadi. Bugungi kunda ko‘ngillilar harakati butun dunyoda xayrli maqsadlarni amalga oshiruvchi tuzilma sifatida shakllangan va rivojlanib kelmog‘da. Hozir dunyo bo‘yicha volontyorlar soni 1 milliarddan ortiq.

Ularining taxminan 70 foizi norasmiy ravishda ko‘ngilli bo‘lib odamlarga bevosita yordam beradi, 30 foizi esa rasmiy tashkilotlar orqali turli tadbirlarda ishtirok etadi. O‘zbekistonda 100 mingdan ortiq ko‘ngilli o‘z xohishi bilan xayrli ishlarga bosh qo‘shyapti. 2030-yilga qadar ularning sonini 2 millionga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ijtimoiy, ta‘lim va rivojlanish, inklyuziv, atrof-muhit va ekologik loyihalar, raqamli va media, onlayn volontyorlik ko‘lami kengayib boradi. Harakatning asosiy missiyasi jamiyatlardagi ijtimoiy keskinlashishni kamaytirish, insonlar hayotini yaxshilash va eng muhim muammolarga yechim topilishiga ko‘maklashishdir.

2019-yil 2-dekabrda “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun bu boradagi munosabatlarni tartibga solishda muhim hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zgalar taqdiriga befarq bo‘lmagan, har qanday holda ham yordamga shay insonlarni birlashtirish, ularni yaxshilikka yo‘naltirish jamiyatda mehr-oqibat muhitini yaratadi, ma‘naviy qiymatlarga asoslangan munosabatlarni kuchaytiradi. O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi faoliyati ana shu ezgu amalni o‘zida ifoda etmoqda. — Hech qaysi jamiyat kutilmagan vaziyatlardan himoyalangan, — deydi

assotsiatsiya rahbari Shirin Obidova. — Ayrim hollarda davlat individual yondasha olmasligi mumkin. Shunday paytlarda volontyorlar, ya‘ni tashabbuskor xalq vakillari davlat uchun yaqin ko‘makchiga aylana oladi. Bunga yaqqol misol qilib butun dunyoni qamrab olgan pandemiya davrini eslash kifoya. Ko‘ngillilar xalqimizga sinovli damlardan o‘tib olishga yordam berdi. Volontyorlik davlat, biznes hamda jamoatchilik sektorini ezigulik yo‘lida birlashtiruvchi ijtimoiy sherikchilikning ko‘prigi sifatida o‘zini ko‘rsatdi.



Ayni paytda yurtimizda 160 dan ortiq volontyorlik guruhi 26 ta yo‘nalishda faoliyat yuritadi. Ijtimoiy va huquqiy himoya, madaniyat, sport, ekologiya, sog‘liqni saqlash kabi ko‘plab sohalarda bugun ko‘ngillilar faolligini kuzatish mumkin.

“

Bir-biriga yordam berish madaniyati odamlarda mehr-shafqat, mas’uliyat, hamjihatlik kabi insoniy fazilatlarini kamol toptiradi.

”



O'ZBEKISTON VOLONTYORLARI ASSOTSIATSIYASI



Tizimning bir bo‘lagi sifatida ishlayotgan volontyorlar maktabi barcha hududlarda ko‘ngillilik istagidagi insonlarga ushbu tizimning qonun-qoidalarini o‘rgatadi. Volontyorlar maktabida o‘qitilgan yuzdan ortiq mentor o‘z ixtiyori bilan minglab insonlarga ko‘ngillilik harakati haqida ma‘lumot beryapti.

Yaxshilikka yo‘g‘irilgan qadriyat

O‘zbek xalqi e‘tiborga, yordamga muhtoj insonlarga befarq qaray olmaydi. Alohida e‘tibor talab etiladigan yurtdoshlarimizga beminnat yordam qo‘lini uzatish, yaxshilik ilinsh, buni xolis bajarish istagidagi insonlar ko‘pligi quvonarli. Bugun ana shu xayrli maqsadga otlangan, ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etayotgan ko‘ngillilar soni 11 mingdan ortgan. Hozirgacha ular kam ta‘minlangan, boshpanasiz, bemor, nogironligi bo‘lgan 50 mingdan ortiq shaxs, yoshi katta otaxon-onaxonlarga ko‘mak ko‘rsatadi.

Bu harakat tinchlik va ezigulik yo‘lida barchani birlashtiradi, odamlar o‘rtasida mehr va ishonch ko‘prigi barpo etiladi. Harakat bilan har bir xonadon, mahallada yaxshilikka yo‘g‘irilgan qadriyatlar yanada bo‘y ko‘rsatadi. Insonni o‘z uyi, mahallasi, qolaversa, dunyo miqyosida ezigu ishlarga undaydi. Ko‘ngillilarning bir-biriga mehri oshadi, do‘stlik rishtasi mustahkamlanadi. Volontyorlikda yoshning ahamiyati yo‘q, ezigu maydonda barchaning rasman birlashishi jamiyatda hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

— O‘tgan yili fevralda ayrim hududlarda “Inson” volontyorlik harakatini boshlagandik, — deydi O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi eksperti Jamoliddin Imomnazarov. — Shu kunlarda mamlakatimizning 208 ta tuman va shahridagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazida ushbu tizimni yo‘lga qo‘yish ustida ishlanyapti. Bunda ko‘ngillilar ijtimoiy himoyaga muhtojlarga markaz faoliyati, qanday ko‘mak ko‘rsatilishi bo‘yicha ma‘lumot beradi. Yoshlar muayyan tajribaga ega bo‘lganidan keyin alohida parvarish talab etiladigan insonlarga ko‘mak ko‘rsatadi.

Harakat missiyasida ekologiya alohida o‘rin tutadi. Bugun 14 mingdan ortiq ekovolontyor atrof-muhitni muhofaza qilishga bel bog‘lagan. 258 ta ekomaktab, 121 ta yoshlar bog‘i tashkil etildi. Joriy yilda ular tomonidan ekilgan 300 mingdan ortiq daraxt niholi yurt obodligiga hissa bo‘lib qo‘shildi. Ko‘ngillilarning tabiatga nisbatan mas‘uliyatli munosabatda bo‘lishga qaratilgan bu sa‘y-harakatlari resurslarni tejash, muhofaza qilish, jamoatchilikda ekologik madaniyatni yanada shakllantirishga ko‘maklashmoqda.

“Biz birgamiz!”

Butun dunyoda ko‘ngillilarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Har bir jabhada, har bir yo‘nalishda volontyorlarning beminnat xizmatiga talab sezilyapti. Soha rivojlanyapti. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro tajribani o‘rganish, eng ilg‘or usullarni tatbiq etish, birgalikda rivojlanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan “Biz birgamiz!” xalqaro ko‘ngillilar festivali ana shu xayrli maqsadni o‘zida mujassam etdi. Festival Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Yoshlar ishlari agentligi ko‘magida, O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi hamda MDHga a‘zo davlatlarning gumanitar hamkorlik bo‘yicha davlatlararo jamg‘armasi hamkorligida o‘tkazildi.

Bir-biriga yordam berish madaniyati odamlarda mehr-shafqat, mas‘uliyat, hamjihatlik kabi insoniy fazilatlarini kamol toptiradi. Ko‘ngillilar odamlarni birlashtiradi, bu fuqarolik jamiyati rivojiga turki beradi. Harakat davlat va mahalliy hokimiyat bilan birgalikda ko‘p ijobiy o‘zgarishlar qilishi mumkin. Yangilanishlardan odamlarning ruhi ko‘tariladi, bir-biriga ishonchi ortadi, mushkuli ariydi. O‘sha hududda tinchlik, barqarorlik mustahkamlanadi.

Volontyorlar bajargan xizmatlar jamiyat uchun katta mablag‘ni tejaydi. Davlatga tushadigan iqtisodiy yukni yengillashiradi. Yoshlarda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga ko‘maklashish, vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda ko‘ngillilik harakatining o‘rni beqiyos.



Biz baxtli zamonda yashayotgan, o‘zini eng omadli his qiladigan insonlardanmiz. Ko‘z tegmasin, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlik hukmron. Mamlakatimizning jadal rivojlanayotgan davlatlar safidan o‘rin olayotgani, nomi butun jahonda ulug‘lanayotgani qalbimizda beqiyos g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi.

Bugunning gapi

BOSH QOMUSIMIZ ERTANGI KUNGA ISHONCHIMIZ ASOSIDIR



Aslida, yurtimizda odilona qonunlar qabul qilinayotgani, xalqchil Konstitutsiyaga egaligimiz hamda uning zamonamizdagi eng mukammal konstitutsiyalar qatorida e‘tirof

etilishining o‘zi ham bunga yorqin dalildir. Shu bois, yurtimizda ahillik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va odillik tamoyillari qaror topib,

Konstitutsiyamizning hayotbaxsh qudrati barchamizga hamroh bo‘layotir. Konstitutsiyamizning har bir moddasi

hayotimizda nechog‘liq muhim o‘rin tutayotganini tushunish uchun oliy ma‘lumotli yoki o‘qimishli bo‘lish shart emas. Oddiy odamlar ham o‘z hayotida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar misolida ushbu xalqchil, hayotbaxsh hujjatning mohiyatini bizdan-da yaxshiroq anglamoqda. Hozir 67 yoshdaman. Tasviriy san‘atning rangtasvir va grafika yo‘nalishlarida 52 yildan buyon faoliyat yuritib, yoshlarga amaliy va nazariy bilim berib kelyapman. Men kabi yoshi ulug‘ ijodkorlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, mehnatimizning qadrlanishi, qonuniy manfaatlarimizning himoya qilinishi, qolaversa, faoliyatimiz va ijodimizga qaratilayotgan yuksak e‘tibor hamda e‘tirof — bularning barchasi Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan muhim mezonlardan biridir. Mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni bilan taqdirlanganimni katta mamnuniyat

“**Hayotini tasviriy san‘atga bag‘ishlagan ijodkor sifatida ishonch bilan ayta olamanki, Bosh qonunimizda belgilangan tamoyillar har bir soha vakilining huquqlari ta‘minlanishi, shaxsiy yuksalishi, hayotda munosib o‘rnini topishi va ertangi kunga ishonch bilan yashashi uchun mustahkam zamin yaratadi.**

ila tilga olaman. Bundan avval ham kamtarona xizmatlarim davlatimiz tomonidan munosib baholanib, “Shuhrat” medali, O‘zbekiston Badiiy akademiasining oltin va kumush medallari bilan mukofodlangan edim. 2016-yilda esa “Qoraqalpog‘ xalq rassomi” faxriy unvonini olishga muvassar bo‘ldim. 2018-yilda O‘zbekiston Badiiy

akademiasining haqiqiy a‘zosi — akademigi etib saylandim.

Hayotini tasviriy san‘atga bag‘ishlagan ijodkor sifatida ishonch bilan ayta olamanki, Bosh qonunimizda belgilangan tamoyillar har bir soha vakilining huquqlari ta‘minlanishi, shaxsiy yuksalishi, hayotda munosib o‘rnini topishi va ertangi kunga ishonch bilan yashashi uchun mustahkam zamin yaratadi. Joriy yil 1-iyulda Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Tasviriy va amaliy san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror esa sohani faqat moddiy qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmay, uni ta‘lim, infratuzilma, marketing, tadqiqot va eksport kabi yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirgan holda kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qaror ijodiy ta‘lim muassasalariga e‘tiborning kuchaytirilishi kelajakda yetishib chiqadigan milliy rassomlar, dizaynerlar va san‘at arboblari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Sarsenboy BAYBOSINOV, J. Izentayev nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san‘at maktab-internati o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalq rassomi